

Ergasheva Dilrabo Allanazarovna

TerDu o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5905820>

BADIIY MATNDA RUHIY HOLAT IFODALANISHINING PSIXOLINGVISTIK TALQINI(ODIL YOQUBOV ASARLARI MISOLIDA)

Annotatsiya. Maqolada til va tafakkurning o'zaro munosabati, bu aloqadorlikning badiiy asar nutqida ifoda etilishi, unda til birliklarining aktuallashuviga sabab tugdiruvchi omillar, Ruhiy holatning sintaktik qurilmalarda ifodalanishi (o'zga gapli konstruksiyalar) to'g'risida so'z yuritiladi. Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi", "Diyonat" "Osiy banda", "Ko'hna dunyo" nomli asarlari misolida qahramon ruhiy holatining ifodasi tahlil etiladi. Qahramonlarning turli hayotiy vaziyatlardagi ruhiy holati - zavqlanish, ruhiy a'ziyat chekishi, xafalanishi, g'azablanishi va boshqa hissiyotlari nutq vositalari orqali qanday ifodalanishi ilmiy tahlil qilinadi. Bunda psixolingvistik qarashlarga tayanib ish ko'rilgan. Shu asosda inson va uning ruhiyati hamda nutq vaziyati bir- birini taqazo etadigan jarayon ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: til, tafakkur, ularning o'zaro munosabati, badiiy asar tili ijodiy tafakkurning namoyon bo'lish shakllaridan biri sifatida, psixolingvistik qarashlar, psixolingvistik talqin.

Эргашева Дилрабо Алланазаровна

Преподаватель кафедры языкознания

Узбекского языка Термезского

Государственного Университета

ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ВЫРАЖЕНИЯ ПСИХИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ АДИЛЯ ЯКУБОВА)

Аннотация. В статье излагаются взгляды относительно взаимосвязи языка и мышления, отражения данного взаимоотношения в литературном тексте и факторов, влияющих на актуализацию языковых единиц. На примере произведений О. Якубова «Улугбек хазинаси», «Диёнат», «Осиё банда», «Кухна дунё» анализируется выражение психологического состояния героя. В изображении душевных состояний героев разнообразных жизненных ситуациях - вдохновении, разные сострадания, обиды, горячность и других чувств основательно обоснована

на примерах материалов данных произведений. В этих анализах автор оперируется психолингвистических взглядов узбекских и иностранных языков.

Ключевый слова: язык, мышление, их взаимоотношения, языковые особенности литературного произведения как способ проявления творческого мышления.

Ergasheva Dilrabo Allanazarovna

Lecturer at the Department of Uzbek Linguistics

Termez State University

PSYCHOLINGUISTIC INTERPRETATION OF SPIRITUAL STATE IN ARTICLE TEXT (ON THE EXAMPLE OF ODIL YAKUBOV'S WORKS)

Annotation. In the article, the speech goes on about the relations of language and thought, the expression of this relationship in the speech of literal work the factors causing the actualization of linguistic units in it. The expression of spiritual condition of a hero is analyzed in the examples of the works "Treasure of Ulugbek", "Conscience" by O. Yokubov. On the basis of analysis, the proficiency of the writer in the drawings of characters emotional state was exposed. The way of expressing emotional state of heroes in various circumstances of life such as, enjoyment, suffer, sadness, anger and other feelings by the means of speech were analyzed scientifically. This research was based on psycholinguistic views. Consequently, it was shown that human beings and their emotions, as well as, the condition of speech are interconnected.

Key words: language, thought, relationship between them, language of literal works as on of the forms of creative thought.

KIRISH:

Inson ruhiy holati bilan bog'liq bo'lgan til vositalarini pragmalingvistik, psixolingvistik, nuqtai nazardan tahlil qilish jarayonida inson va uning omili ustun hisoblanadi. Inson va uning ruhiyati hamda nutq vaziyati bir-birini taqozo etadigan jarayondir.

Tilshunoslikdagi psixologik yo'nalish ancha davrlardan buyon hukm surib kelayotgan til mohiyatini mantiqiy asosda yoritishga qarama-qarshi ravishda XIX asrning 50-yillarida qiyosiy-tarixiy tilshunoslik negizida vujudga keldi. Bu yo'nalishning paydo bo'lishida V. Fon. Gumboldning til falsafasi katta ta'sir ko'rsatdi. Tilshunoslikda psixologik yo'nalishning asoschisi buyuk nemis tilshunosi, V.Fon.Gumboldning shogirdi G. Shteyntaldir [1;23].

Ma'lumki V.Fon.Gumbold asarlarida "tilning ichki shakli" tushunchasi markaziy o'rinni egallaydi. Bu juda keng tushuncha bo'lib, xalq ruhi, urf-odatlarini kabilarni o'z ichiga oldi. "Ichki shakl" tushunchasidan psixolog yo'nalish tarafdorlari so'zning paydo bo'lish jarayonini tushuntirib berishda ham foydalandilar. Xususan, bu tushuncha rus tilshunosligidagi psixologik yo'nalishning yirik vakili A.A. Potebnya asarlarida ham

markaziy o'rinni egallaydi. U psixologik atamalarga ko'proq murojaat qildi va asosan nutqiy jarayonga asosiy e'tiborini qaratdi [2;3-16].

ASOSIY QISM:

Badiiy matnlarda inson ruhiy holatini ifodalovchi til birliklarining qo'llanishi bilan bog'liq amaliy masalalarning o'rganilishi tilshunoslikdagi asosiy muammolardan bo'lib, bu tipdagi tadqiqotlar ma'lum ma'noda amaliy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ijodkor mahorati, til vositalaridan qanday foydalanishini tahlil qilish orqali aniqlanadi. Til va uning inson ruhiy holatini ifodalashi nazariyasi o'zbek tilshunosligida hali to'la shakllangan emas. Til va tafakkur, til va shaxs omili, muloqot va til imkoniyatlari munosabatlariga bag'ishlangan ishlar jahon tilshunosligida ommalashgan bo'lsa-da, o'zbek tilshunosligida bu masalaga e'tibor, uning ilmiy tadqiqi, endigina boshlanmoqda [3;25].

Til va ruhiyat masalasi jahon tilshunosligida keng tadqiq qilinayotgan bo'lsa-da, bu borada o'zbek tilshunosligida endigina e'tibor qaratilmoqda. Til millatning oynasi, uning borlig'i ifodasi sifatida qayd qilinarkan ekan, mana shu tilni o'rganish, til hodisalari orqali til egalarining ruhiyati va ma'naviyatidan xabardor bo'lish kishi bilimlarini boyitishga xizmat qiladi.

Inson ruhiyatining badiiy tahlili – so'z san'atining asosiy belgisi, uning tub mohiyatini belgilovchi sifatidir. Zotan, insonshunoslikni shaxsning ruhiy dunyosidan ajratib tasavvur etib bo'lmaydi. Insonning ruhiy dunyosi o'zaro suhbatlarda, tortishuvlarda, diolog va monologlar vositasida ochiladi. Odil Yoqubov o'zining "Ulug'bek xazinasi", "Diyonat", "Ko'hna dunyo" "Osiy banda" romanlarida qahramon ruhiy holatini yoritishda turli lingvopoetik vositalardan foydalanish mahoratini namoyon qila olgan.

O'zbek tili ibora va turli qochirimlarga boy til. O'zbeklar nutqida badiiy tasvir vositasi sifatida frazeologik birliklar keng qo'llaniladi.

Nutqda va badiiy asar tilida ruhiy holat ifodasi uchun ham frazeologizmlardan unumli foydalaniladi. Masalan, o'zbek tilida keng qo'llanuvchi *boshi osmonga yetdi, yuragi yorildi, tepa sochi tikka bo'ldi, yer yorilmadi-yu, yerga kirib ketmadi* iboralari inson ruhiy holatini aks ettiruvchi lug'aviy birliklar sanaladi.

Iboralar orqali so'zlovchining xilma-xil uslubiy ma'no anglatish niyati ta'sirchan ifodasini topadi. Kinoyalar, sha'ma qilishlar, tahdid, po'pisa, do'q, og'rinish, hazil-mutoyiba, qochirim, pardali gapirish, ma'noni kuchaytirib ko'rsatish, ijobiy va salbiy baholash va boshqa uslubiy ma'no anglatish niyatlari iboralar orqali ta'sirchan tus oladi.

Iboralar qahramonlar nutqida juda katta uslubiy ma'no qimmatiga egadirlar. Bu yerda o'zbek tilining, go'zalligi va tovlanuvchanlik xususiyatlari alohida bir joziba va estetik ta'sirchanlik bilan ko'zga tashlanadi [4;272].

Frazeologik birliklar inson ruhiy holatini obrazli ifodalovchi birliklardir. Masalan, *g'azablandi fe'li o'rnida tepa sochi tikka bo'ldi* yoki *qo'rqdi fe'li o'rniga yuragi naq*

yorildi frazeologizmlarining ishlatilishi orqali nutqda konnotativ ma`noni hosil qilish bilan birga inson ruhiy holati haqida ham ma`lumotga ega bo`linadi.

Frazeologizmlar ruhiy holatni ifodalashda mubolag`aviy holatni hosil qiladi. Shu sababli nutq egasi fraziologik birliklardan unumli foydalanishga intiladi. Bu holat o`zbek tilida ekspressiv bo`yoqdorlik orqali fikrni uzatishga moyillikning mavjudligidan dalolat beradi [5;3-16].

O`zbek tilida ruhiy holat ifodasi uchun qo`llanuvchi frazeologik birliklar fikrning emotsionallik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli yozuvchilar qahramon ruhiyatini aks ettirishda iboralardan keng foydalanadi [6; 48].

Odil Yoqubov romanlarida ham qahramon ruhiyatini kitobxon teran anglab yetishi uchun iboralar o`z o`rnida ishlatilgan. Quyida adibning romanlaridan olingan matnlar asosida iboralarning inson ruhiy holatini yoritishdagi ahamiyatini ko`rib o`tamiz.

Ruhiy holat asosan insonga xos. Bunda ichki kechinma, o`y-xayol, eslash, unutish, dard-alam tortish, iztirob chekish, darg`azab bo`lish, achchiqlanish, kuyish va shu kabi ko`plab inson ruhiyati bilan bog`liq bo`lgan turli-tuman holatlar aks etadi. [7; 48]. Bular tilda fe`llar, turg`un va frazeologik birikmalar orqali ham ifodalanadi. Shuni ham aytish kerakki, psixologik holatlar, odatda fikrlash - miya orqali, sezish - yurak, dil orqali namoyon bo`lganligi tufayli bu holatni aks ettiruvchi so`z va frazeologizmlarda, ko`pincha, **o`y, miya, bosh, yurak, ko`ngil, dil, fikr** so`zlari ishtirok etadi. Jumladan, *yuragi uvishmoq, vang bo`lmoq, yuragi siqilmoq, yomon ko`rmoq, bag`rini yirtmoq, jigari suv bo`lmoq va hakazo.*

Bunday iboralar Odil Yoqubov romanlarida juda ko`p qo`llangan bo`lib, yozuvchi bunday frazeologik birliklardan qahramonlar ruhiy holatini o`ta aniqlikda ta`sirchan ifodalash uchun samarali foydalangan. Odil Yoqubov romanlarida ham qahramon ruhiyatini kitobxon teran anglab yetishi uchun iboralar o`z o`rnida ishlatilgan. Quyida adibning romanlaridan olingan matnlar asosida iboralarning inson ruhiy holatini yoritishdagi ahamiyatini ko`rib o`tamiz.

- *Uning maqsadi bizni... ham haydamoq, ham qamamoq!!!, - dedi Ota **jazavasi tutib.** - Qamay olmaydi! Qo`rqmang , Ota! Keladiganlarning ham tomoqlari teshik-ku! Berarmiz qorinlari yorilib ketgucha! Sarkor shunday deb Otani tinchitgan bo`ldi-yu, o`zining **yuragi zirqirab ketdi.(Otaning jahl holati).** **G`azabidan tushgan Otaning chehrasi birdan ochilib ketdi. (Otaning xursandlik holati).***

- *Mana endi o`zingga o`xshab gapirding! Quy, anov zahri zaqqumdan!*
(O. Yoqubov. Osiy banda).

Keltirilgan matnda Otaning ruhiy holati (jahl, xotirjamlik, xursandlik) **jazavasi tutmoq, g`azabidan tushmoq, chehrasi ochilib ketmoq** iboralari orqali, Sarkorning ruhiyatida kechayotgan holatlar (qo`rqinch) esa **yuragi zirqirab ketmoq** iborasi orqali yoritib berilmoqda.

Ko`rinib turibdiki, yozuvchi o`zbek tilining sof, bejirim iboralaridan mahorat bilan foydalanib, qahramonlarning ichki qalb tug`yonlarini kitobxonga teranlik ila yetkazib beradi. Bu esa yozuvchi mahoratining ochilmagan qirralari ko`pligi hamda xalq tilining ma`nolar xazinasidan foydalanish ustasi ekanligidan dalolat beradi.

Odil Yoqubov romanlarini kuzatish natijasida inson ruhiyati bilan bog`liq bo`lgan quyidagi iboralarning badiiy tasvir yaratishda o`ziga xosliklarini ko`rish mumkin.

1. Fikrlash, mushohada yurgizish, tasavvur etish. Bu holat, ko`pincha, tasviriy yo`l bilan beriladi: *Mirzo Ulug`bek... ko`zlari yumilib borarkan, xayolidan o`sha fikr o`tdi* (O.Yoqubov. Ulug`bek xazinasasi). Bunday qo`llanish ("o`yga toldi") badiiy tilga xos bo`lib, xalq tilida "o`yga cho`mdi" qurilishi moslab olingan bo`lishi mumkin. Aslida esa "ga+tol" formasi "tolmoq" fe`lining ma`nosiga qaraganda mantiq jihatdan to`g`ri bo`lmaydi. (Qiyos qiling: qo`li toldi, oyog`i toldi), shunga qaramay, bu shakl "xayolga berildi" ma`nosida (badiiy tilda) shakllangan).

2. Biror kishi, narsa, voqea-hodisani o`ylash, tasavvur etish, esga olish kabi ruhiy holat ma`nolari shunga mos keladigan (eslamoq, esiga olmoq, yodiga olmoq, yodlamoq, o`ylamoq kabi) fe`llar bilan va ko`z, ko`ngil, quloq, ich kabi so`zlarning fe`llar bilan birga qo`llanib kelishi orqali ham beriladi. Masalan: *Lekin hozir qizning o`zi uning ko`z o`ngidan ketmay qoldi*. (O. Yoqubov Ulug`bek xazinasasi). *Uning ko`rkam qomati ko`z oldida turardi* (O. Yoqubov. Diyonat). *Shu-shu bo`ldi-yu, qulog`idan Tohiraning ovozi nari ketmay qoldi* (O. Yoqubov. Diyonat.98-bet). *Ali Qushchi shularni ko`nglidan o`tkazar ekan, avval kungi oqshom esiga tushdi* (O. Yoqubov. Ulug`bek xazinasasi).

3. Biror obyekt, narsa yoki hodisaning turtki berishi natijasida boshqa biror kishi, narsa yoki hodisani esga olish, esga tushirish ham mumkin: *Uning to`ladan kelgan gavdasiga ko`zi tushgan Sarkorning, bobosi Mirsharof Mirshab esiga tushdi*. (O.Yoqubov. Osiy banda).

4. Kishidagi niyat qilish, maqsad, orzu-istak kabi modal-istak holatlar ham hayot bilan aloqador ichki kechinmalarni normal yoki anormal (turli ichki, tashqi ta`sirlar natijasida yuz bergan) holatlarni ifodalashda bir qancha maxsus vositalar qo`llanadi: Masalan, *Mirsharof Mirshab Sarkorni shu qizga uylantirishni ko`ngliga tugib qo`ydi*. (O.Yoqubov. Osiy banda). *Abu Shilqim Shahvoniy ham shunday maishatga ko`ngli sust ketgan...* (O.Yoqubov. Ko`hna dunyo) va boshqalar.

5. Ichki kechinma va umuman ruhiyat bilan bog`liq bo`lgan ekspressiv-emotsional holatlar. Kishi yoki hayvon organizmidagi, asab tizimi miya, xayolot bilan aloqador ichki kechinmalarni normal yoki anormal (turli ichki, tashqi ta`sirlar natijasida yuz bergan) holatlarni ifodalashda bir qancha maxsus vositalar qo`llanadi: fe`llar, fe`lli birikmalar, idiomalar va tasviriy iboralar: *Bu xabarni eshitgandan keyin gangib, esini yo`qotdi, yarasi yangilandi* (O. Yoqubov. Ulug`bek xazinasasi). *Es-hushidan ajralgan Xurshidabonu dunyolarga sig`may ketdi. – Mal`un! – deb baqirdi*. (O. Yoqubov. Ulug`bek xazinasasi)

Ushbu matnlar tahlili asosida shuni aytish mumkinki, o'zbek tilida ruhiy holat ifodasi uchun qo'llanuvchi frazeologik birliklar ifodaning tasvir kuchini oshirishga xizmat qiladi.

Odil Yoqubov shunday qalam sohibi ediki, uning qalb tug'yonlarini, dil nidolarini, uning har bir asarida ham o'qib, ham uqib olish mumkin. So'zdan foydalanish mahorati esa o'z asarlaridagi har bir qahramon ruhiy holatini takrorlanmas darajada ifodalab beradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o'zbek tilida ruhiy holat ifodasi turli sath birliklari vositasida ifodalanishi mumkin. Bu vositalarning funksional xususiyatlarini tadqiq etish o'zbek tilshunosligining navbatdagi vazifalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ҳақимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2004. – 23 б.
2. Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўлларини излаб ... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3-16;
3. Xudayberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. Toshkent . Fan. 2013. 25-bet.
4. Yoriyev B. Til va uslub. "Surxon – Nashr" nashriyoti, 2016, 272-bet.
5. Маҳмудов Н. Кўрсатилган асар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3-16;
6. Юлдашев М.М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан.д-ри ... дис. автореф. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2009. – 48 б.
7. Пешкова Н.П. Психолингвистические аспекты типологии научного текста: Автореф. дис.... д-ра филол. наук. – Уфа: БашГУ, 2002. – 48 с.
8. Makhmaraimova Sh.T. Anatomical terms formed metaphorically – basic Units medical picture of the word //Philosophical Readings XIII. 4 (2021), pp. 2622-2629.2629.
9. Makhmaraimova Sh.T. Eponymy in English and Uzbek // Philosophical Readings XIII. 4 (2021), pp. 2630-2637. 2637.
10. Umurkulov B. Lingvopotetic nature of quality // International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. 11, 79 (2019). Pp. 232-236.
11. Umurkulov B. Comparison – a means of poetic expression // Journal of critical reviw. Vol 7. Issue 5(2020), pp. 1730-1733.
12. Iroda Xidirova, Nigora Xidirova Gender Characteristics of Family Speech Speech (On the Example of the Uzbek Family) // European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE). Vol 1. Issue 2 (2021), pp. 196-199.
13. Yoqubov O. Ulug'bek xazinasi. Toshkent. G'afur g'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1974.- 320 b.

14. Yoqubov O . Saylanma: 3 jildlik. I-j. Ko`hna dunyo. Roman. Qissa. Hikoyalar. – T.: Adabiyot va san`at nashriyoti. 1986. – 512 b.
15. Yoqubov O. Diyonat. Toshkent. G`afur g`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti.1979. – 288 b.